

ARAB TILIDA HUQUQQA OID TERMINLARNING RIVOJI.**Sidiqova Ma’mura**

Toshkent shahar Oriental Universiteti

Sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada arab tilidagi huquqqa oid terminlarning paydo bo‘lishi va ularning rivojlanishi haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: til, termin, huquq, arab tili

Abstract: this article provides a brief overview of the emergence and development of legal terms in the Arabic language.

Key words: language, term, law, Arabic language

Til bilimning barcha sohalarida muhim element bo‘lib xizmat qiladi. Jahondagi har bir tilning o‘z o‘rni va ahamiyati bor bo‘lib, har bir til o‘ziga qardosh tillar yordamida boyib, rivojlanishi bilan o‘z o‘rni va ahamiyatini kasb etadi. Olamdagi har bir tilning so‘zlari o‘ziga xos bo‘lgan ma’noni ifodalaydi, ayniqsa bunday so‘zlar biror sohaga tegishli bo‘lsa. Tildagi terminlar ma’nosini bilish, ularni o‘rganish esa undan ko‘zlangan maqsadni tushunishga asoslanadi. Lisoniy konnotatsiyalar odatiy kundalik hayotda ishlatiladigan terminlarga qaraganda kengroq ma’noni ifodalaydi.

Har bir sohaning o‘ziga xos terminologiyasi bo‘lganidek, huquqqa oid terminlar ham mavjud. Har bir davrning o‘ziga hos ko‘plab ijtimoiy va huquqiy normalar mavjud bo‘lib, rivojlanib kelayotgan jamiyatni ana shu normalar o‘z qoidalari asosida tartibga soladi. Xususan arab tilidagi huquqqa oid terminlarning paydo bo‘lishi islomgacha va islomdan keyin yozib qoldirilgan manbaalar bu sohani rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. VIII asr oxiri IX asrning birinchi yarmiga kelib, huquqshunoslikning o‘z tushunchalari, o‘ziga xos tili va uslubi shakllandi. Bu fanning alohida fan sifatida shakllanishiga islom olamining kengayishi, fath etilgan o‘lkalar sonining jadal sur’atda o‘sishi, turli millatlarning islom dinini qabul qilishi kabi omillar sabab bo‘lgan. Taxminan X asrlarga kelib islom huquqi fani diniy ilmlar sirasiga kiruvchi mustaqil fan sifatida uzil-kesil tarkib

ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI

topdi. Birinchi avlod ulamolari sahobai kiromlar va tobeinlar sodir bo‘lgan voqea hodisalarni mohiyatiga ko‘ra yangi nomlar bilan atamadilar balki ular o‘zlarining huquqiy va lingvistik bilimlariga ko‘ra yangi terminlarga ega edilar.

VII asrda boshlangan fath yurishlari natijasida arab xalqlari zabt etilgan mamlakatlarning madaniyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu davrda islom madaniyatining keng ommaga tarqalishi qanchalik shiddat bilan amalga oshgan bo‘lsa, yangi terminlarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj shu qadar kuchaydi. Bu jarayon bilan bog‘liq holda, o‘zga tillardan arab tiliga o‘zlashgan yoki arablar tomonidan ilk marotaba iste‘molga kiritilgan so‘zlar miqdori ham ortib bordi. Shuningdek, islom dini va madaniyatining rivojlanishi yangidan-yangi fan sohalarning vujudga kelishiga ham sabab bo‘ldi. Shu fan sohalari ichida diniy bilimlar tarkibiga kiruvchi islom huquqi “fiqh ilmi” nomi bilan mustaqil fan sifatida shakllandi. Turgan gapki, fiqh ilmining rivojlanishi unga oid yangi terminlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bizga ma‘lumki, arab tilida bir so‘z bir necha ma‘nolarda qo‘llaniladi, shu sabab islom huquqiga oid terminlarga ta‘rif berilayotganda, mana shu so‘z asli qaysi o‘zakdan olingan, u lug‘atda qanday ma‘noni anglatadi, istilohda qanday ishlatiladi va hatto, bu termin nima sababdan shu ma‘noda qo‘llanilayotganligiga ham sharh berib ketiladi.

Islom huquqiga oid deyarli barcha manbalarda biror mavzu tushuntirilishdan oldin unga oid terminlarga sharh berib ketiladi. Bu yo‘nalishda ijod qilingan Ahmad Nasafiyning “Tilbatut-talabati fi-l-istilohati-l-fiqhiya” nomli, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” nomli asarlari ahamiyatlidir. Doktor Abdurrahmon Abdulmun‘im “Mu‘jamu-l mustalahat va-l alfazi-l fiqhiyya” kitobida terminlarni keng tadqiq etgan.

O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Zamonaviy bilimlar qatorida islom olamiga katta xissa qo‘shgan ulamolarimiz merosini o‘rganishga ham ehtiyoj mavjud bo‘lib, ularning asarlarini tarjima qilishda, undagi ma‘no-mohiyatini anglashda arab tilidagi huquqqa oid terminlarni bilish muhim o‘rin tutadi. Islom dini Movarounnahrda kirib kelganidan so‘ng islom huquqi turkiy xalqlar orasida keng tarqaldi va hatto ularning urf odatlariga aylandi. Shunday

ekan, bizning huquqiy tizimimizning asl tarixi islom huquqiga borib taqaladi desak xato bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi 5186-son “Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 201-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida¹ belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tashabbusli ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кодуков М. Общее языкознание. –М., 1974. –С.105.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 1980. - 280 b.
3. Tursunova U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘zbekiston, 1992.
4. Hojiev A. Termin tanlash mezonlari. –T.: Fan, 1996. - 190 b.
5. Dadaboyev Hamidulla. O‘zbek terminologiyasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek Tili va Adabiyoti Universiteti 2019
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_tizim.

¹ <https://lex.uz/docs/5514989>